



XORAZM DOSTONCHILIKI

Madrimova To'xtajon

O'zbekiston Davlat Konservatoriyasi Nukus filiali "Umumiy kasbiy va social gumanitar fanlar" kafedrası "Musiqashunoslik" mutaxassisligi 1-kurs talabasi

Kamalova G.M - Ilmiy rahbar

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm dostonchilik an analarining o'ziga xos xususiyatlari hamda dostonchilik san'atining inson ma'naviyatini shakllantirishdagi o'rni va ahamiyati haqida atroflicha tahlillar berilgan.

Kalit so'zlari: Doston, batshi, ijrochilik, an'analar, ma'naviyat, musiqa.

Аннотация. В этой статье Хорезмский эпос уникален. Характеристики эпическое искусство в формировании духовности человека Дан подробный анализ

Ключевые слова: эпос, батши, исполнение, традиции, духовность, музыка.

O'zbek dostonchiligi juda qadimiy va mo'tabar ma'naviy meros nishonasidir. Xalq ijodiyoti, san'at insonning ma'naviy kamolotida alohida o'rin tutadi. Barcha san'atlarning rivoji negizida xalq og'zaki ijodi turadi. Insoniyat paydo bo'lganidan to bugungi kunga qadar san'atning adabiyot, qo'shiqchilik kabi turlarida xalq og'zaki namunalardan foydalanib kelinmoqda. Ushbu namunalarning eng go'zal turi-bu baxshichilik san'atidir. San'at inson dunyoqarashini va tafakkurini boyitibgina qolmay, uni ezguliklar, yaxshiliklar, go'zalliklar olamiga boshlaydi. Inson umrini hayotini kuy-qo'shiqsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Zero, san'at inson ma'naviy faoliyatining eng muhim qirralaridan biri, bunyodkorlikka undovchi buyuk va qudratli kuchdir. Bugungi kunda baxshichilik va dostonchilik san'atini mamlakatimizda va xorijda keng targ'ib etish, ustoz baxshilar, dostonchilar, soha olimlari iqtidorli yosh baxshilarni, moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash maqsadida, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 26-apreldagi 304-sonli qarori bilan, baxshichilik va dostonchilik sanatini yanada rivojlantirish, hamda takomillashtirish bo'yicha, 2018-2022- yillarga mo'ljallangan «Yo'l xaritasi» tasdiqlangan. «Yo'l xaritasi»da nazarda tutilgan chora tadbirlarning to'liq va sifatli bajarilishini nazorat qilish, mas'ul vazirliklar va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini tizimli asosda muvofiqlashtirish rejalashtirilgan. O'zbek baxshichilik va dostonchilik san'atining noyob namunalari asrab avaylash va rivojlantirish, uni



keng targ-ib qilish, yosh avlod qalbida ushbu san'at turiga hurmat va e'tibor tuyg'ularini kuchaytirish, turli xalqlar o'rtasida do'stlik va birodarlik ishtalarini mustahkamlash, jodiy hamkorlik, madaniy-ma'naviy munosabatlar doirasini xalqaro miqyosda yanada kengaytirish maqsadida Ozbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2018 yilning 1- noyabr kuni «Xalqaro baxshichilik san'ati» festivalini o'tkazish to'grisida qaror qabul gilinib, bunda festival tadbirlari orasida mazkur soha olim va amaliyotchilarining jodiy uchrashuvlarini uyushtirish zarurligi belgilab berildi. Shu munosabat bilan «Jahon sivilizassiyasida baxshichilik san'atining o'rni» mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya tashkil etildi. Ushbu ilmiy konferensiyani o'tkazishdan asosiy maqsad, baxshichilik hamda dostonchilik san'atini yanada rivojlantirish, o'zbek va boshqa xalqlarning dostonlarni ilmiy o'rganish, bu borada ilmiy hamkorlik qilish, madaniyat va san'at sohasidagi qolaversa ma'rifat sohasidagi hamkorlikni xalqaro miqyosda kengaytirishdan iboratdir. Dostonchilik — xalq og'zaki o'ris ijodidagi qadim o'or an'ana. Dastlab qo'shiq shaklidagi, musiqa asbobisiz kuylanadigan asarlar yaratilgan. Keyinchalik (10— 11-asrlar) do'mbira jo'rligida aytiladiganlari yuzaga kelgan. Dostonchilikning bunday namunalari Kaspiy va Orol dengizlari bo'ylaridagi qadim ko'chmanchi o'ris qabilalar orasida vujudga kelgan. Epik dostonlarni yaratuvchi va kuylovchi badihago'ylar ko'payib o'ris sari ustoz-shogirdlik an'analari vujudga kela boshladi. Natijada 15—16-asrlarga kelib ko'pgina dostonchilik maktabi paydo bo'ldi. 17—18-asrlar D. Taraqqiyotida jiddiy ko'tarilish bosqichi, 19—20-asrlar esa uning eng rivojlangan davri hisoblanadi. Bu davrda baxshilar repertuarida 150 dan ortiq xalq dostonlari bo'lib, ularni Tilla kampir, Sulton kampir, Jolmon baxshi, Bo'ron shoir, Jumanbulbul, Jossoq, Xonimjon xalfa, Buvi shoira, Suyav baxshi, Amin baxshi, Yo'ldoshbulbul, Sultonmurod, Qurbonbek, Yo'ldosh shoir, Suyar shoir, Sherna yuzboshi kabi mashhur baxshilar kuylab kelganlar. Ergash Jumanbulbul o'g'li, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Po'lkan, Islom shoir, Saidmurod Panoh o'g'li, Berdi baxshi, Abdulla Nurali o'g'li, Umir shoir, Bola baxshi, Ahmad baxshi kabi yetakchi san'atkorlar uzlariga zamondosh boshqa baxshilar bilan birgalikda bu o'or an'anani davom ettirdilar. Qat'iy tartibga rioya qilingan: doston eshitish uchun maxsus kechalar uyushtirilgan, to'y-hashamlar ham baxshilarsiz o'tmagan. Tinglovchilar baxshini to'rga o'tqazib, atrofida qo'r to'kib o'tirganlar. Baxshi do'mbirasini sozlab, tinglovchilarga «Nima aytay» termasi bilan murojaat qilgan, «Kunlarim», «Do'mbiram» termalarini aytib, tinglovchilar e'tiborini o'ziga jalb etgan. Baxshi ijro davomida dostonidagi har bir tasvirga mos so'z topib, o'sha so'zlarga monand xatti-harakatlar qilgan. Tinglovchilarni qiziqtirish bilan, o'zi ham



tobora avjga chiqqan. Iqtidorli dostonchilar ikki-uch kecha mobaynida, hatto oylab doston kuylay olganlar. Mas, Shernazar Berdinazar o'g'li yetti kecha davomida doston ayta olgan. Ba'zi dostonlarning hajmi ham ikki-uch kecha muttasil ijro etishni taqozo etgan. Dostonchi, odatda, voqea eng qiziq joyga yetganda kuylashni to'xtatib, tanaffus qilgan, bu esa tinglovchilarning qiziqishini yana ham oshirgan.. kechalariga ikki uch baxshi tashrif buyurgan. Bunday hollarda dostonchilar o'zaro tortishuvga kirishganlar: bir-birlarining iqtidorlarini, so'zdagi chechanligini, soz chalishdagi mahoratlarini sinaganlar. Tinglovchilar ularga baho berganlar. Xalq olqishini ololmagan dostonchi davradan chiqib ketgan. An'anasi hozirgi kunda ham davom etmoqda, ammo kuylash tartibi va sharoitlarida birmuncha o'zgarishlar bor. Endiliqda baxshilar teatrlarda, konsert zallarida, katta sayil va hasharlarda, radio va televideniye orqali uyushtirilgan olimpiada va tanlovlarda o'z mahoratlarini keng tomoshabinlar oldida namoyish etmoqdalar. Xozirgi kunga kelib Dostonchilik maktabi – baxshilik san'ati markazi. O'zbek folklorshunosligida Bulung'ur, Narpay, Qo'rg'on, Xorazm, Shahrisabz, Sherobod kabi yirik dostonchilik maktablaridan tashqari, Qamay, Piskent, Qulbuqon, o'zbeklaqay va b. Shunday markazlar ham ma'lum, Ular repertuarlari, uslubi, ma'lum ijod tamoyili va ijro usullariga ko'ra bir-biridan ajralib turadi. Mas, 19-asrda Qashqadaryo viloyati, Qamashi tumanining Qamay qishlog'i bilan bog'liq Qamay D. M. Mavjud bo'lgan. Bu maktab Dehqonobod va G'uzor tumanlari atrofida yashovchi Abdukarim Juyruq (19-asr), Mulla Xolnazar o'g'li (1910-yil v.e.), Bozor Sherqul o'g'li (1887—1953), Hazratqul baxshi Xudoyberdiyev (1920-yil t.) kabi 60 ga yaqin baxshilarni birlashtirgan. Ular Shahrisabz dostonchilik maktabi bilan ijodiy hamkorlikda bo'lgan. Qamay D. M. Vakillari xalq dostonlarining lirik yo'nalishiga alohida e'tibor berishgan. Ular poetik shakllar taraqqiyotida Sherobod dostonchilik maktabi vakillariga nisbatan ilgari lab ketganlar. Qamay dostonchilaridan “Nuralining yoshligi” (1972, 1977), “Xonimoy” (1963) va b. Dostonlar yozib olingan. Piskent D. M. Berdi baxshi nomi bilan bog'liq. Mazkur maktab lirik yo'nalishga moyil, ba'zi jihatdan Ergash Jumanbulbul o'g'lining ota-bobolari asos solgan Qo'rg'on dostonchilik maktabi baxshilariga yaqin poetik uslubga ega bulgan. Jan. Tojikistonda yashovchi o'zbeklaqay baxshilari Dang'ara tumanining Jorubko'l qishlog'i bilan bog'liq. Haybat Shamol o'g'li (19-asr), Tula Haybat o'g'li (1884-1966), Mustafouqul Qunduz o'g'li (1883—1966), Shomurod Shamol o'g'li (1883—1964) va b. Bu maktabning iste'dodli vakillaridan hisoblangan. Bu baxshilar repertuarining asosini “Go'ro'g'li” dostonlar turkumi tashkil qilgan. Ularning matni nihoyatda qisqa, ixcham. Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumani hududida Qo'lbuqon D. M. Shakllangan. Haydar Boycha



o'g'li, Razzoq Qozoq o'g'li, Usmon Mamatqul o'g'li, Bo'ri baxshi, Mallavoy Hoshimovlardan yozib olingan xalq og'zaki ijodi namunalari bu maktabga Bulung'ur dostonchilik maktabi ta'siri kuchli bo'lganligini ko'rsatadi. Dunyodagi ayrim xalqlarda o'zining tarixiga oid yirik hajmdagi katta muhim voqea bayon etiladigan janrlar bor. Biz — o'zbeklarda bu janr «doston» deb ataladi. «Doston» so'zi qiziq-qiziq voqealarni hikoya qilish, maqtash ma'no-larini anglatadi. Badiiy adabiyotimizda asosan ikki usulda yaratilgan dostonlar bor. Birinchisi, asrlar davomida xalq og'zaki ijodida baxshilar tomonidan og'zaki tarzda kuylab kelingan dostonlar. Ikkinchisi, yozma shaklda shoirlar tomonidan ijod qilingan dostonlar. «Alpomish», Go'ro'g'li turkumidagi «Go'ro'g'lining tug'ilishi», «Malikai Ayyor», «Ravshan»; «Kuntug'mish», «Rustamxon» kabilar og'zaki dostonlar namunalaridir. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Haydar Xorazmiyning «Gul va Navro'z», Na-voiyning «Hayratul abror», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun» kabi asariari esa yozma adabiyotdagi dostonlar bo'lib, ularni og'zakidan ajratish lozim bo'ladi. Og'zaki ijoddagi doston bir qator tarkibiy qismlardan tashkil topadi. Professor M. Saidov ularni she'riy va nasriy parchalardan iborat matndan, musiqadan, doston aytuv-chining hofizlik san'atidan va soz cherta bihshidan iborat, deb qayd etadi. Shu bilan birga, doston haqida to'liq tasavur hosil qilish uchun baxshining bevosita tinglovchi-lar davrasida qaynab (ilhomga kirib) doston ijro etishiga guvoh bo'lish ham muhimdir. Demak, doston bo'lishi uchun baxshining tinglovchi bilan jonli muloqotini ham tarkibiy qismlardan biri sifatida baholash mumkin. Dostonni baxshilar kuylaydilar. Qadimgi zamonlarda «baxshi» xalqona usullar bilan bemorni davolovchi tabib, ayrim hududlarda ustoz ma'nolarini anglatgan. Bugungi kunda bu so'z asosan xalq dostonlarini kuylaydigan san'atkorni bildiradi. Baxshi soz chertganda sozanda, she'riy parchalarni kuyga solib aytganda xonandadir. Shuningdek, parchalarni bir zumda to'qib ketadigan shoir, ., dostondagi nasriy parchalarni yodda o'qiyotganda badiiy so'z ustasi hamdir. Shoirtabiat baxshi hech qachon dostonni bir xil, ya'ni o'zgarishsiz ijro etmaydi. Professor Hodi Zarifovning ta'kidlashlaricha, bulung'urlik Amin baxshi «Alpomish» dostonini uch oy davomida tinglovchilarini sira zeriktirmay kuylagan ekan. Endi yozda yoki kuzda boshlangan doston kuzda yoki qishda nihoyasiga yetishini tasavur qilaylik. Bir fasl muddatda doston ijro etgan baxshi biron kitobga qaramasdan shuncha gapni va she'riy parchalarni qaerdan topgan? O'sha nusxadagi dostonning hajmi qanday bo'lgan? Uch oy zeriktirmay ijro etish uchun naqadar yuksak mahorat egasi bo'lishi kerak o'sha baxshi? Bu savollarga beriladigan har bir javob o'zbek dostonchili-gining beqiyos imkoniyatlarini qayta-qayta takrorlaydi, xolos. Baxshi doston aytar ekan,



«Alpomish» dostonida Alpomish gapirganida, Alpomish mardligini, Barchin so'zlaganida go'zal qizning yuzini ko'z oldimizda gavdalan-tiradi. Shuning uchun doston kechalari har bir tinglovchi uchun o'or bayram bo'lgan. Bu kechalarda odamlar o'rtasidagi hamma ginaxonliklar unutilgan, turmush tashvishlari chekingan. Yoshu kattalar, erkak-ayollarning butun xayoli dostonidagi voqealar bilan band bo'lgan. Dostonlar hajm jihatdan chegaralanmaydi. Doston ijrosi ham ba'zan soatlab, ba'zan kunlab davom etgan. Bunda doston mazmuni, baxshining mahorat darajasi muhim hisoblangan. O'zbekistonda xalq dostonlari Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro, Xorazm, Namangan viloyatlarida va Qoraqalpog'iston muxtor respublikasida ijro etiladi. Ijrochi baxshilar do'mbira, tor, dutor chertib, qo'biz tortib doston aytadilar. Ijro usuliga ko'ra o'zbeklarda Samarqand, Xorazm, Farg'ona (Namangan) dostonchilik an'analari mavjud bo'lib, Samarqandda ichki bo'g'iz ovoz-da, Xorazmda ochiq qo'shiq aytish yo'li bilan, Namanganda ochiq, ammo, musiqa asbobiga mos holda kuy-lanadi.

Ushbu noyob san'atning noyob na'munalarini asrab-avaylash va rivojlantirish, uni keng targib qilish, yosh avlod qalbida ushbu san'at turiga hurmat va e'tibor tuygularini kuchaytirish_ va dunyo xalqlari o'rtasida xalqaro madaniy_ aloqalamni yanada mustahkamlash uchun xizmat qiladi. Baxshichilik va dostonchilik san'atining tarixi, baxshilar va dostonchilar ijodini mukammal o'rganish, bu borada fundamental tadqiqotlar olib o'orish, unitilayotgan dostonlarni qayta tiklash, va kelajak avlodga yetkazish lozimdir. Baxshilar ijrolarini audio, video tasmalariga yozib olish, ular ijodini kitob holiga keltirish, Xorazm dostonlarini notaga olish, shu dostonlardan imkon darajasida filmlar yaratishni yo'lga qo'yish, dostonchilik maktablarini rivojlantirishdagi asosiy vazifalardan biridir. Zero, adabiyot, she'riyat, musiqa va tomosha kabi birqancha san'at urlarini o'zida mujassam etgan dostonlar tarbiya vositasi bo'libgina qolmasdan, madaniy merosimizning noyob durdonasidir.

REFERENCES:

1. NiyazbaevaA,KamalovaG.OZBEKISTON XALO BAXSHISI QALLIEV TENELBAY GENJEBAEVICH IJODI //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. — 2023.— Т. 2.— №. 7.—С. 22-24
2. Segizbaeva G., Kamalova G.M.DEVELOPMENT OF THE ORCHESTRA OF MUSICAL INSTRUMENTS IN KARAKALPAKSTAN//Modern Science and Research.



2023.-Т.2.-№. 10.-С. 875-879.

3. Abdikarimova I. T., Kamalova G. M. QARAQALPAOSTAN RESPUBLIKASINDAGI

BIRINSHI FLEYTA ATQARiWSHiSi/Journal of new century innovations._2023,_T.

43.-N. 3.-С. 178-181.

Guldana s. Kamalova G. M. J. CHARSHEMOVTIN DORETIWSHILIGINDE FUGA

JANRI/World scientific research journal. —2023. —Т. 22.— N. 2.—С. 32-38

5. Omarova A. SCHOOL CHEERS THROUGH MUSIC PROFESSIONAL DIRECTION

/Modern Science and Research. — 2023. — Т. 2. — N. 10. — С. 151-8. 8.Omarova A

SCHOOL CHEERS THROUGH MUSIC PROFESSIONAL DIRECTION /Modern Science and Research.-2023.—Т.2.— №. 10.—С. 151-156.

5. Омарова А. ПРИМЕНЕНИЕ И ИННОВАЦИОННО-ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ

МУЗЫКАЛЬНОГО УРОКА.

7. Begis P. Kamalova G. M. SONBES JULDIZ LOBРАЗОВАНИЕ НАУКА ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ.-2023.-Т. 32.-№. 2.— С. 55-59

8. Niyazbaeva A., Kamalova G. OZBEKISTON XALO VA XSHISIO ALLIEV TENELBAY

GENJEBAEVICH IJODI //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования.

— 2023. - Т. 2.— №. 7.—С. 22-24